ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



№10(5)
2026

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 250 sahifa,
26-oktyabr, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd), dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI
Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Karimova E.G. – Sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Raxmonova Z. A. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Sayimova D. K. – texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:
Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician
Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor
Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)
Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor
Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)
Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor
Rakhmonova Z.A. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Sayimova D. K. – Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences
Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics
Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region
Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences
Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA CODEPЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA

Informatika darslarida algoritmik topshiriqlar orqali 5–6-sinf o‘quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish metodikasi 10
Muyassar Xodjiyeva Maxmudjanovna

Maktabgacha ta’limda matematikani o‘qitishda o‘yin texnologiyalaridan foydalanish 17
Samatova Xuvvaydo Rasulovna

Asliyat va fransuzcha tarjimalardagi toponimlarning struktur-grammatik modellari 22
Valijon Mamadjonov Alixanovich

“Tarbiya” darslarida raqamli hikoyalar orqali o‘quvchilarda halollik, mas’uliyat va mehr-oqibat fazilatlarini shakllantirish 26
Abdullayeva Surayyo Babojonovna

Kasbiy madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuvning imkoniyatlari 32
Komiljonova Mohinur Alllabergan qizi

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarida kasbiy kompetentlikni takomillashtirishda modellashtirishning o‘rni 37
Mamadaliyeva Marhabo Xolmamatovna

Raqamli keyslar asosida bo‘lajak pedagoglarning ijtimoiy-pedagogik profilaktik faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish 43
Raximov Sardorbek Kabulovich

Teskari sinf modeli asosida amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlikni tashkil etish metodikasini takomillashtirish 48
Tursunbayeva Sevinch Normurod qizi, Saidov O‘tkirjon Mallayevich

Sinfni boshqarishdagi muammolar va ularning amaliy yechimlari 53
Xidirov Baxrom Dobilovich

Loyiha texnologiyasining lingvodidaktik asoslari 60
Muhammadaziz Omonov

O‘smirlarda egoizm psixodiagnostikasi 65
Karayeva Yulduz Xushbakovna

Oliy pedagogik ta’limda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning integrativ yondashuvga asoslangan metodikasi 69
Jo‘rayev Shuxratbek Maxamadaliyevich

Inklyuziv ta’lim sharoitida logopedik yordamni tashkil etishning tashkiliy-pedagogik mexanizmlari 73
Azimova Dilnoza Sherzodovna

Talabalarda ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini shakllantirishning psixologik omillari 76
Baxriyeva Nargiza Axmadovna

Bolalar adabiyoti vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axloqiy tanlov kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi 81
Duschanova Nilufar Sabirbayevna, Nurmetova Nazokat Baxtiyorovna

Nogiron farzandli onalarda psixologik farovonlikning himoya resurslari: nazariy-metodologik tahlil 86
Kasimova Xulkar Atabayevna

Intellektual rivojlanishida buzilishlari bo‘lgan o‘quvchilar bilan korreksion-logopedik ishda vizual tayanchlar va muqobil kommunikatsiyani qo‘llash modeli 90
Raximova Dildora Saidbasitovna

Дети с комплексными нарушениями развития 93
Д. Т. Ганурова

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodkorlik qobiliyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik mohiyati ... 97
Mavlyanova Umida Sadikjanovna

Nizolarning yuzaga kelishidagi shart-sharoitlar, shaxs toifalari va ularning xislatlari 101
Choriyeva Durdona Anvarovna, Malikova Umida Nurliboy qizi, Lutfullayeva Iroda Abduvahob qizi

Ijtimoiy tarmoqlarning talaba yoshlar milliy qadriyatlariga ta'sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari 106
Turg'unov Baxromjon Raximjonovich

Tarbiyachi-pedagoglarda deontologik kompetensiyani rivojlantirishning metodologik yondashuvlari 112
Davlatova Dildora Nuriddinovna

Autizm spektri buzilishiga ega bolalarda nutqiy muloqot ko'nikmalarini shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari 115
A. B. Mamatova

Davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifati monitoringi va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish 123
Mongiyev Abdulxokim Ibragimovich

Transformational School Leadership and Teacher Performance: A Narrative Literature Review 127
Nilufar Buriyeva Anvar kizi, Axatov Aminjon Tohir ugli,
Sodiqova Marziyaxon Botirjon kizi, Lutfullayeva Moxistara Xayrullo kizi

Pedagogical Model for Improving the Methodological Competence of Future History Teachers Based on Digital Historical Sources 133
Otegenov Berdibay Menglibaevich

Tarbiyalanuvchilarda axloqiy sifatlarni shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari va ertakterapiya imkoniyatlari 136
Qosimova Muattarxon Shokirjon qizi

O'qituvchi pedagogik faoliyatida pedagogik mahorat, refleksiv va innovatsion yondashuvning integratsiyasi 140
Mirsagatova Nargiza Sayfullayevna

Xorijiy tajribalar asosida maktab ta'lim mazmunini takomillashtirish 146
Abdullayev Muxammadimin Egamberdiyevich, Teshayeva Toxira Inomjonovna

Pedagogik muhandislikning metodologik asoslari, kategoriyaviy apparati va yondosh ilmiy-pedagogik yo'nalishlar bilan o'zaro aloqadorligi 151
Nasrullayeva Fatima Azatovna

Рефлексивная подготовка будущих воспитателей к личностно ориентированному взаимодействию с дошкольниками 160
Бозорова Зухра Жураевна

Bo'lajak tarbiyachilarning tasviriy-ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish mazmuni 165
Xazratkulova Gulyora Tojiboyevna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ona tili ta'limini loyihalash kompetensiyasini metakognitiv yondashuv asosida rivojlantirish metodikasi 169
Raupova Navbahor Bahriddinovna

Kursant va talabalarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish va ekstremal sharoitlarda harakat qilish ko'nikmalarini shakllantirishning innovatsion yondashuvlari 174
Yulliyev Nuriddin Jumanazarovich

Talabalarning tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishning ijtimoiy zaruriyati 179
Sharipova Guzal Sodiqovna

Maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining matematik tasavvurlarini mental yondashuv asosida takomillashtirish: nazariy-metodik sharh 185
Parpiyeva Mohinur Baxtiyor qizi

STEAM yondashuvi asosida fizika laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi 189
Artikov Abdukaxor

"Korpus detektori" mashqlar tizimi: tuzilishi, bosqichlari va qo'llash metodikasi 196
Bahronov Nodirbek Aliyevich

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ongli o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda tabaqalashtirilgan yondashuv (EGRA-U diagnostikasi asosida) 199
Ne'matova Diyora Baxodir qizi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Ona tili darslarida hamkorlik texnologiyasidan foydalanishning mavjud holati va metodik muammolari 205
Usmonova Yulduz Faxriddin qizi

Grammatik tarjima metodida ona tilidan foydalanishning didaktik xususiyatlari 210
Erkinova Madina Komil qizi

Talabalarda ta'limiy kommunikativlikni rivojlantirishning pedagogik shart sharoitlari 214
Babayeva Maxfuza Abduvaitovna, Ismoilov Bobur Toxirovich

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi refleksiv kompetensiyasining mazmuni, tarkibiy tuzilmasi va rivojlanish darajalari 218
Bomurodova Gulhayo Jumayevna

Masalalarni tenglama tuzish yordamida yechimini qurishga o'rgatish metodikasi 223
Ismoilov Bobur Toxirovich, Babayeva Maxfuza Abduvaitovna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash mazmunida argumentatsion nutq: darsliklar, o'quv reja va oliy ta'lim adabiyotining kontent-tahlili 229
Mamatova Marg'uba Ummatqul qizi

Основы паллиативной помощи педагогическая поддержка детей, получающих паллиативную помощь 233
Жузбаев Нурлан Урал угли, Хакимова Гульшода Абдусаламовна

"Pedagogikaning pragmatik aspektlari" modulini kreativ yondashuv asosida o'qitish modeli va ingliz tilidagi o'quv materiallarini tanlash mezonlari 237
Meliqo'ziyeva Zarnigorxon Ikromjon qizi

Gospital sharoitida turli yosh guruhlaridagi bolalar bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlari 242
S. M. Umarova

Harbiy xizmatchilarda kasbiy faoliyat davomida hissiy kuyish (emotsional burnout) sindromining ijtimoiy-psixologik psixoprofilaktikasi 246
Tursunov Kamariddin G'ulomovich

GOSPITAL SHAROITIDA TURLI YOSH GURUHLARIDAGI BOLALAR BILAN ISHLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

S. M. Umarova
QDU
Maxsus pedagogika kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada gospital sharoitida turli yosh guruhlariga mansub bolalar bilan ishlashning psixologik-pedagogik, kommunikativ va tashkiliy xususiyatlari tahlil qilinadi. Bolaning yosh davriga xos rivojlanish xususiyatlari, kasallikni idrok etishi, tibbiy muolajalarga munosabati hamda ota-ona bilan emotsional aloqasining ahamiyati yoritiladi.

Chaqaloqlik va ilk bolalik, maktabgacha, kichik maktab, o'smirlik davrlaridagi bolalarga individual yondashuv tamoyillari ko'rib chiqiladi. Shifoxona sharoitida bolalarning ruhiy farovonligini qo'llab-quvvatlash, yoshiga mos muloqotni tashkil etish, o'yin va ta'lim faoliyatini davom ettirish, oilani parvarish jarayoniga jalb qilish bo'yicha amaliy tavsiyalar, pediatriya muassasalarida bolaga yo'naltirilgan, oilaviy hamkorlikka asoslangan va rivojlanish ehtiyojlarini hisobga oluvchi yondashuvni takomillashtirish haqida fikr bildirilgan.

Kalit so'zlar: gospital pedagogikasi, pediatriya, yosh xususiyatlari, psixologik qo'llab-quvvatlash, bolaga yo'naltirilgan yondashuv, oilaviy hamkorlik, terapevtik o'yin, gospitalizatsiya, emotsional farovonlik.

Abstract: This article analyzes the psychological-pedagogical, communicative, and organizational aspects of working with children of various age groups in a hospital setting. It explores developmental characteristics specific to different age stages, how children perceive illness, their attitudes toward medical procedures, and the significance of their emotional bond with their parents. The principles for an individualized approach to children-ranging from infancy and early childhood to the preschool, primary school, and adolescent stages-are examined.

The article offers practical recommendations for supporting children's psychological well-being in hospitals, facilitating age-appropriate communication, maintaining play and educational activities, and involving families in the care process. Furthermore, it discusses enhancing a child-centered, family-collaborative approach within pediatric institutions-one that accounts for the developmental needs of the child.

Key words: hospital pedagogy, paediatrics, age-related characteristics, psychological support, child-centred care, family involvement, therapeutic play, hospitalization, emotional well-being.

Аннотация: В данной статье анализируются психологические, педагогические, коммуникативные и организационные особенности работы с детьми разных возрастных групп в условиях стационара. Особое внимание уделяется возрастным особенностям развития ребенка, его восприятию болезни, отношению к медицинским процедурам и важности эмоционального общения с родителями.

Рассматриваются принципы индивидуального подхода к детям младенческого и раннего детского возраста, дошкольного, начального и подросткового возраста. Даются практические рекомендации по поддержке психического благополучия детей в условиях стационара, организации соответствующего возрасту общения, продолжению игровых и образовательных мероприятий, вовлечению семьи в процесс ухода, а также совершенствованию ориентированного на ребенка, семейного и учитывающего потребности развития подхода в педиатрических учреждениях.

Ключевые слова: госпитальная педагогика, педиатрия, возрастные особенности, психологическая поддержка, личностно-ориентированный подход, семейное участие, терапевтическая игра, госпитализация, эмоциональное благополучие.

KIRISH

Bolalarning salomatligini saqlash va tiklash jarayoni nafaqat tibbiy davolash, balki ularning psixologik, ijtimoiy va pedagogik ehtiyojlarini ham hisobga olishni talab etadi. Ayniqsa, bolaning shifoxonaga yotqizilishi odatiy hayot tarzining o'zgarishi, yaqinlaridan vaqtincha ajralish, notanish muhit, og'riqli muolajalar va kundalik

faoliyatning cheklanishi bilan kechishi mumkin. Ushbu omillar bolaning emotsional holati, xulq-atvori va davolash jarayoniga moslashishiga ta'sir ko'rsatadi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining (JSST) bolalar va yosh o'smirlarga tibbiy muassasalarda ko'rsatiladigan yordam sifatini yaxshilashga doir standartlarida bolalarning jismoniy, psixososial, rivojlanish va kommunikativ ehtiyojlari kattalarnikidan farq qilishi alohida ta'kidlangan1. Mazkur yondashuv tibbiy xizmatni tashkil etishda bolaning yoshi, rivojlanish darajasi, oilaviy sharoiti va individual ehtiyojlarini hisobga olish zarurligini asoslaydi.

Gospital sharoitida bolalar bilan ishlashda tibbiyot xodimlari, psixologlar, pedagoglar va ota-onalarning o'zaro hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Bolaning yoshiga mos tushuntirish, emotsional qo'llab-quvvatlash, o'yin faoliyatini saqlash va imkon qadar odatiy kun tartibini davom ettirish shifoxona muhitiga moslashishni yengillashtirishga yordam berishi mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ta'lim olishning turli shakllari, shu jumladan inklyuziv ta'lim va boshqa moslashuvchan ta'lim shakllari nazarda tutilgan. Qonunning 20-moddasida inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda ta'lim oluvchilar uchun teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgani belgilangan [2].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son qarori bilan jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan, shuningdek, uzoq vaqt davolanishga muhtoj bolalarga uyda yakka tartibda ta'lim berish tartibi belgilangan. Nizomga ko'ra, tibbiy ko'rsatmalar asosida umumiy o'rta ta'lim tashkilotiga doimiy yoki vaqtincha qatnay olmaydigan o'quvchilar uchun uyda yakka tartibda ta'lim tashkil etilishi mumkin[3].

Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb qilish bo'lajak defektologlarda pedagogik mas'uliyatni shakllantirish samaradorligini takomillashtirishning pedagogik asoslari bo'yicha dunyodagi yetakchi olimlar o'z izlanishlarini olib borishgan. Ushbu izlanishlar asosan defektologning pedagogik mas'uliyati tuzilishini o'rganish, ishlashga undovchi motivlarni bilish hamda bo'lajak defektologlarda pedagogik mas'uliyat samaradorligini oshirish muammolarini psixologik jihatdan oqilona hal qilishga qaratilgan.

Rus olimlaridan B.G. Ananyev, N.V. Kuzmina, A.A. Rean, E.I. Stepanova, shuningdek, P.A.Prosetskiy, E.M. Nikireyev, V.A. Slastenin, V.A. Yakunin va boshqalarning asarlarida katta empirik materiallar to'plangan, tajribalar natijalari va nazariy umumlashmalar berilgan.

Shuningdek, B.G. Ananyev, S.L.Rubinshteyn, M.Argil, V.G. Aseev, L.I. Bojovich, K. Levin, A.N. Leontyev, Z. Freyd va boshqa olimlar pedagogik mas'uliyat muammosining murakkabligi va ko'p qirraliligini, uning mohiyati, tabiati va tuzilishini tushunishga, shuningdek, uni o'rganish usullarini ishlab chiqishga yondashganlar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Metodologik yondashuv sifatida tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, tasniflash, tizimlashtirish va ilmiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Manbalarni tanlashda gospital sharoitida bolalarga tibbiy yordam ko'rsatish sifati, bolalarning psixososial moslashuvi, yoshga mos muloqot, terapevtik o'yin va oilaga yo'naltirilgan parvarish masalalariga e'tibor qaratildi.

Tahlil jarayonida bolalar quyidagi shartli yosh guruhlariga ajratildi:

1. Chaqaloqlik va ilk bolalik - tug'ilgandan 3 yoshgacha.
2. Maktabgacha yosh - 3-6(7) yosh.
3. Kichik maktab yoshi - 7-10(11) yosh.
4. O'smirlik davri - 11-18 yosh.

Ushbu guruhlash tahlilni tizimlashtirish uchun qo'llanildi. Yosh chegaralari ilmiy va amaliy tasniflarda farq qilishi mumkin, shu sababli individual rivojlanish darajasi, bolaning kognitiv imkoniyatlari va klinik holati yosh ko'rsatkichlari bilan birgalikda hisobga olinishi lozim. Yosh guruhlari bo'yicha yondashuvning asosiy farqi bolaning axborotni qabul qilish, his-tuyg'ularini ifodalash, mustaqil qaror muhokamasida ishtirok etish va ijtimoiy aloqalarni saqlash imkoniyatlari bilan belgilanadi. Shu bilan birga, yoshning o'zi individual ehtiyojlarni to'liq ifodalamaydi. Masalan, rivojlanishida o'ziga xosliklar mavjud bo'lgan bola, uzoq muddatli kasallik bilan yashayotgan bemor yoki avval salbiy tibbiy tajribani boshdan kechirgan bola qo'shimcha moslashtirilgan yordamga muhtoj bo'lishi mumkin.

1 O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020
2 O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020
3 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-sonli qarori

Gospitalizatsiya bolaning odatiy ijtimoiy muhitidan vaqtincha ajralishiga va kun tartibining o'zgarishiga sabab bo'lishi mumkin. Tibbiy muolajalar, og'riq, noaniqlik, notanish xodimlar va ota-onadan uzoqlashish bolaning xavotirini kuchaytirishi ehtimoli mavjud. Biroq bu ta'sir barcha bolalarda bir xil namoyon bo'lmaydi: uning darajasi yosh, temperament, avvalgi tajriba, kasallikning og'irligi, gospitalizatsiya davomiyligi va oilaviy qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Tahlil asosida gospital muhitida bolalar bilan ishlashning quyidagi asosiy yo'nalishlari ajratildi:

- bolaning emotsional xavfsizligini ta'minlash;
- yoshiga mos va tushunarli muloqot o'rnatish;
- tibbiy muolajalarga psixologik tayyorlash;
- ota-ona yoki asosiy parvarishlovchi bilan aloqani imkon qadar saqlash;
- o'yin, ta'lim va ijtimoiy muloqot ehtiyojlarini qo'llab-quvvatlash;
- bolaning shaxsiy fikri, qadr-qimmati va rivojlanish xususiyatlarini hurmat qilish.

Turli yosh guruhlaridagi bolalar bilan ishlash xususiyatlari

Chaqaloqlik va ilk bolalik davri (0-3 yosh). Ushbu davrda bola o'z ehtiyojlarini to'liq ifodalash imkoniyatiga ega bo'lmasligi mumkin. Shu sababli uning yig'isi, yuz ifodasi, uyqusi, ishtahasi, tana harakati va parvarish jarayonidagi reaksiyalarini kuzatish muhimdir. Ota-ona yoki asosiy parvarishlovchining yaqinligi bolaga tanishlik va xavfsizlik hissini berishi mumkin.

Bu yosh guruhida quyidagi yondashuvlar maqsadga muvofiq:

- imkon qadar ota-ona ishtirokidagi parvarishni tashkil etish;
- bolaning uyqu va ovqatlanish tartibini saqlashga intilish;
- muolajalar vaqtida muloyim ovoz, sokin muhit va ehtiyotkor jismoniy kontaktni qo'llash;
- ortiqcha shovqin va keraksiz stimullarni kamaytirish;
- og'riq va noqulaylik belgilarini yoshga mos usullar bilan baholash.

Tibbiy muolajalar bolaning holati va xavfsizlik talablariga muvofiq bajarilishi shart. Ota-onaning ishtiroki klinik ko'rsatmalar yoki infeksiya nazorati qoidalariga zid kelmasligi kerak.

Maktabgacha yosh davri (3-6(7) yosh). Bu davrda tasavvur va hissiy reaksiyalar muhim o'rin tutadi. Bola tibbiy muolajani noto'g'ri tushunishi, og'riqni jazolanish bilan bog'lashi yoki kasallik sababini o'z xatti-harakatlaridan izlashga moyil bo'lishi mumkin. Shuning uchun tushuntirish sodda, qisqa, aniq va bolaning tushunish darajasiga mos bo'lishi lozim.

Mazkur yosh guruhida:

- qo'g'irchoqlar va o'yinchoqlar yordamida muolajalarni tushuntirish;
- rasm chizish, ertak aytish va rolli o'yinlardan foydalanish;
- bolaning qo'rquvini inkor qilmasdan, uni tinglash;
- muolajadan oldin nima sodir bo'lishini tushunarli qilib aytish;
- xavfsiz vaziyatlarda bolaga kichik tanlovlar berish tavsiya etiladi.

Masalan, bola muolajadan qo'rqayotganida unga "Qo'rqma, hech narsa bo'lmaydi" deyish o'rniga, muolajaning maqsadini sodda tilda tushuntirish va his-tuyg'ularini ifodalashiga imkon berish samaraliroq muloqot shakli bo'lishi mumkin.

Kichik maktab yoshi davri (7-10(11) yosh). Bu davrda bolalarning sabab-oqibat munosabatlarini tushunish, savollar berish va o'z holatiga izoh izlash qobiliyati rivojlanadi. Shifoxonada bo'lish bolaning o'qish faoliyati, tengdoshlari bilan aloqasi va mustaqillik hissiga ta'sir qilishi mumkin.

Ushbu yoshdagi bolalar bilan ishlashda:

- kasallik va davolash jarayonini izchil tushuntirish;
- bolaning savollariga rost va yoshiga mos javob berish;
- tibbiy muolajalar oldidan psixologik tayyorgarlik ko'rish;

- imkoniyatga qarab ta'lim mashg'ulotlari va kitob o'qishni davom ettirish;
- bolaning kichik vazifalarni mustaqil bajarishiga sharoit yaratish;
- tengdoshlari bilan aloqani xavfsiz shakllarda saqlash muhimdir.

Pedagogik faoliyat bolaning sog'lig'i, charchash darajasi va shifokor tavsiyalariga muvofiq tashkil etilishi kerak. Maqsad o'quv yuklamasini majburan davom ettirish emas, balki bolaning rivojlanish uzluksizligini imkon qadar qo'llab-quvvatlashdir.

O'smirlik davri (11-18 yosh). O'smirlikda mustaqillik, shaxsiy hudud, tengdoshlar fikri va o'z tanasiga munosabat alohida ahamiyat kasb etadi. Kasallik yoki uzoq muddatli gospitalizatsiya o'smirda kelajak, tashqi ko'rinish, o'qishdan ortda qolish va ijtimoiy aloqalarning cheklanishi bilan bog'liq xavotirlarni yuzaga keltirishi mumkin.

O'smirlar bilan ishlashda quyidagi tamoyillar muhim:

- bevosita o'smirning o'zi bilan hurmatga asoslangan muloqot qilish;
- uning fikri va savollarini qarorlar muhokamasiga jalb etish;
- shaxsiy hayot daxlsizligi va maxfiylikni amaldagi qonunlar hamda klinik talablar doirasida ta'minlash;
- davolash jarayonini tushunish va o'z salomatligi haqida bilimini oshirishga yordam berish;
- oila bilan hamkorlikni o'smirning rivojlanish ehtiyojlari va huquqlarini hisobga olgan holda tashkil etish;
- ruhiy zo'riqish, ijtimoiy yakkalanish yoki uzoq davom etuvchi tushkunlik belgilari kuzatilsa, tegishli muta-xassisga yo'naltirish.

O'smirlarning tibbiy xizmatlarda ishtiroki, kamsitilmasligi, oilaviy va jamoaviy qo'llab-quvvatlanishi JSST-ning o'smirlarga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha xalqaro standartlarida ham muhim yo'nalishlar sifatida belgilangan .

XULOSA VA TAKLIFLAR

Gospital sharoitida turli yosh guruhlaridagi bolalar bilan ishlash ularning jismoniy holati bilan bir qatorda psixologik, ijtimoiy, kommunikativ va ta'limiy ehtiyojlarini ham hisobga olishni talab etadi. Bolaning kasallikni idrok etishi, tibbiy muolajalarga munosabati va shifoxona muhitiga moslashishi uning yoshi, rivojlanish darajasi, avvalgi tajribasi hamda oilaviy qo'llab-quvvatlashiga bog'liq bo'lishi mumkin.

Gospitalizatsiya bolalarda xavotir, qo'rquv, yaqinlarini sog'inish va odatiy faoliyatdan uzilish kabi qiyin-chiliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli tibbiy yordamda psixososial ehtiyojlarni ham hisobga olish zarur.

Chaqaloqlik va ilk bolalikda xavfsizlik, barqaror parvarish va ota-ona bilan yaqinlik; maktabgacha yoshda o'yin va sodda tushuntirish; kichik maktab yoshida tushunarli axborot va ta'lim uzluksizligi; o'smirlikda esa mustaqillik, shaxsiy hudud va qarorlarda ishtirok etish alohida ahamiyat kasb etadi. Shifoxona sharoitida bolalar bilan ishlashning samarali tashkil etilishi yosh xususiyatlarini hisobga oluvchi, oilaviy hamkorlikka asoslangan, bolaning huquqlari va qadr-qimmatini hurmat qiluvchi kompleks yondashuvni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. - Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori.
3. Abdullayev, U. (2020). Gospital pedagogika: nazariy asoslar va amaliyot. Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.
4. Saidova, M. (2023). Gospital pedagogika fanining rivojlanishi va dolzarb masalalari. Toshkent: Innovatsion ta'lim nashrlari.
5. Xudoyberdiyeva, N. (2019). Gospital pedagogika fanining tarixi va asosiy tushunchalari. Samarqand: Sharq nashrlari.
6. Abdurahmonov A. Inklyuziv ta'lim asoslari. - Toshkent: Fan, 2020.

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №10(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.